

MAKTABGACHA TA'LIMDA BOSHQARUV MADANIYATI VA UNING IJTIMOIIY AHAMIYATI

Adashboyeva Baxtiyorxon Baxadir qizi

Andijon viloyati, Andijon shahri

“Iriska” NMTT tarbiyachisi

Kalit soʻzlar: *ta'lim, baholash, boshqaruv, tadqiqot, kompleks, texnologiya, modernizatsiya, faoliyat, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznes*

Dunyoda ta'lim eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan bugungi sharoitda “Ta'limning hamma bosqichlarida, ta'lim natijalarini baholash samaradorligini oshirish va usullarini takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali barcha insonlar uchun ularning hayoti davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratishni dolzarb vazifa qilib qoʻymoqda”³⁸. Bunda esa, birinchi navbatda, ta'limni boshqarish va ta'lim sifatini nazorat qilishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Ta'lim, shu jumladan, maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv faoliyatini rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarda ta'lim boshqaruvi natijaviyligiga alohida e'tibor qaratilib, bunda asosiy urg'u ta'lim sifati menejmentiga berilmoqda. Ushbu tadqiqotlar tarkibida maktabgacha ta'limni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari, sifat menejmenti va ta'lim sifati monitoringini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish hamda ta'lim sifati va samaradorligining uyg'unligini ilmiy jihatdan asoslovchi takliflarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda ta'lim tizimining har bir bo'g'ini davlatning e'tiborida bo'lmoqda. O'tgan davr mobaynida aqliy va jismoniy jihatdan rivojlangan avlodning shakllanishini ta'minlashga qaratilgan istiqbolli ta'lim tizimini tashkil etish bo'yicha bir qator kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, bu yo'nalishdagi vazifalar maktabgacha ta'lim tizimida ham davomli amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqlarida “...Birinchi vazifa – maktabgacha ta'lim sohasida.

...Axir, bu o'rinda gap barchamizning farzandlarimiz to'g'risida, hech bir mubolag'asiz aytish kerakki, mamlakatimizning kelajagi haqida ketmoqda”³⁹ – deb bildirgan fikrlari, ushbu tizimda sifatli ta'lim-tarbiyani tashkil etish, uning boshqaruv faoliyati rivojini takomillashtirish va bu orqali maktabgacha ta'limni zamon talab etayotgan darajaga ko'tarishga doir izlanishlar olib borish dolzarblik kasb etmoqda.

³⁸ Incheon Declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

³⁹ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartibintizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. / Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017-yil 14-yanvar. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 44-45-b.

Ma'lumki, har qanday faoliyat turi boshqaruv asosiga quriladi, chunki shu faoliyatni amalga oshirishdan ko'zlangan aniq bir maqsadga erishish, bajariladigan vazifalarni taqsimlash, ijrosini nazorat qilish, shuningdek, samaradorlikka erishish uchun shu faoliyatda ishtirok etuvchilar manfaatlarini himoya qilish, rag'batlantirish kabi chora-tadbirlari boshqaruv jarayonida tashkil etiladi va muvofiqlashtiriladi.

Boshqaruv tushunchasi tor ma'noda biror-bir tashkilot maqsadini aniqlash va unga erishish uchun zarur bo'lgan vazifalarni rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish jarayonlarining foyda keltirishi, samara berishi, faoliyat yo'nalishini to'g'ri tanlay olish, qarorlar qabul qila bilishga hamda uning boshqarilishini nazorat qilishga va bu jarayonning borishiga bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon talabi miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini o'zgartirib, yangilab borishni ko'zda tutadi. Ilg'or texnologiyalarning to'la o'zlashtirilishi, iqtisodiyotdagi ijobiy o'zgarishlar, chet el investitsiyalari ko'lamlarining kengayishi, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesning rivojlanishi, shuningdek, uzluksiz ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvning joriy etilishi hamda ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalari, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarning yaratilishi, o'quv-tarbiya jarayonining didaktik jihatdan ta'minlanishi ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirishga asos bo'lmoqda.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida ishlab chiqarishni rivojlantirish, tashkilot va korxonalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash ko'p jihatdan zamon talablariga javob beradigan rahbar va mutaxassislarni tayyorlash sifatiga bog'liq. Bugungi kunda innovatsion bozor iqtisodiyotini barpo etish sharoitida rahbarlarni (boshqaruvchilarni) tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlashda menejment tushunchasi alohida o'rin kasb etadi.

Menejment - inglizcha so'z bo'lib, o'zbek tilida boshqaruvni tashkil etish (boshqarish, boshqaruv hokimiyati, tashkil etish), rahbarlik qilish (rejalashtirish, tartibga solish-muvofiqlashtirish, nazorat qilish) ma'nolarini anglatadi. Menejment - bu ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun faoliyatni, ya'ni insonlar yoki ularning guruxlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda boshqarish usullari, shakllari va vositalari majmui.

Menejment umumiy holda u yoki bu faoliyat turini tashkil etishni va unga rahbarlik qilishni, ya'ni turli xil sohalarda faoliyat olib borayotgan insonlarning xatti-harakatlarini, munosabatlarini muvofiklashtirish, ularning imkoniyatlari va qobiliyatlaridan to'g'ri foydalanishni tashkil etish, nazorat qilish va boshqarishni anglatadi. Menejment, avvalo, insonlarni boshqaradi, ularni o'z faoliyatiga qiziqtirish,

tadbirkorlikka, mehnatga ijodiy yondashish, o'ziga ishonish tuyg'ularini shakllantirish, sohalar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallashiga ko'maklashish, yangilikka va ijodkorlikka chorlash, insonlarning faoliyatini boshqarish demakdir.

“Boshqaruv” so'zi odatda aniq bir maqsadga erishish uchun boshqariluvchi tizim (yoki boshqaruv obyekti)ga faol ta'sir ko'rsatish to'g'risida gapirilganda qo'llaniladi. Zamonaviy adabiyotlarda boshqaruvning ma'nosi bo'yicha uch xil yo'nalishda tushunchalar mavjud⁴⁰.

Birinchisiga ko'ra, boshqaruv ma'nosi faoliyat deb keltirilgan. Masalan, boshqaruv jarayoni bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan, o'z vaqtida boshqaruv

fanining rivojlanishiga salmoqli xissa qo'shgan, boshqaruv nazariyasi asoschilaridan biri fransuz olimi A.Fayol boshqarishni:

- kelajakni ko'ruvchi;
- faoliyatni tashkillashtiruvchi;
- tashkilotni idora qiluvchi;
- faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi;
- qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qiluvchi kuchli qurol deb ataydi.

Ikkinchi yo'nalish vakillari boshqaruvni bir tizimning ikkinchisiga, shaxsning ikkinchi bir shaxsga yoki guruxga “ta'sir etishi” deb hisoblaydilar. Bu yo'nalish tarafdorlari boshqaruv - maqsadga yo'naltirilgan ta'sir etish bo'lib, subyektning obyektaga ta'siri natijasida obyektning o'zgarilishi, deb ta'riflashadi.

Uchinchi yo'nalishga ko'ra, boshqaruv - bu subyektlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, ya'ni to'g'ri va teskari ta'sirlarning uzluksizligi, bir-biriga ta'sir etuvchi subyektlar o'zgarishining organik bog'liqligi degan qarashlar mavjud.

S.N.Tidor boshqaruv ma'nosini quyidagicha tavsiflaydi:

- maqsad yo'nalishida obyektni muvofiqlashtirish;
- maqsadga erishish uchun obyektaga ta'sir etish;
- maqsadga erishish yo'nalishida tizimni tashkil etuvchilariga ta'sir etishni vertikal muvofiqlashtirish.

A.I.Kitovning ta'rif berishiga ko'ra: “Boshqaruv - bu insonlarni boshqarish, ular bilan ishlash”.

Mamlakatimizda boshqaruv fanining rivojlanishiga salmoqli xissa qo'shgan olimlardan M.Sharifxo'jayev, Y.Abdullayevlar bo'lib, ular boshqaruv - bu o'ziga xos yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishdir deb ta'kidlab, quyidagicha ta'rif beradi: “Boshqaruv - bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir”.

Har bir muassasaning faoliyatidagi samaradorlik, birinchi navbatda, jamoadagi shaxslararo munosabatlarning qanchalik to'g'ri tashkil etilgani yoki

⁴⁰ Juraev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti // Darslik. – T. 2006, – 266 b.

etilmaganligiga bog'liq. Boshqacha aytganda, ishning qanday tashkil etilishi rahbarlik, boshqaruvchilikning tashkil etilishi darajasiga bog'liq bo'ladi.

Har bir rahbar pedagogik tizimni boshqarib borar ekan, eng avvalo, undagi mavjud muammolar va bu tizimdagi a'zolarining pedagogik-psixologik xususiyatlarini bilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.⁴¹

Rahbarlik uslublari va uning mazmun mohiyatiga rahbar o'z boshqaruv faoliyatida afzal bilgan va asoslangan barcha usullar va harakatlarning taktika va strategiyalaridan tashkil topgan tizim sifatida qaraladi. Bunda, bir tomondan, strategiyalar bilan boshqaruv faoliyati mazmuni, ikkinchi tomondan, bu tizimning o'zi, inson faoliyati muhitida turli ahamiyatga ega bo'lgan harakatlar va shu qatorda professional faoliyat boshqaruv subye'ktining rivojlanishi, mutaxassis sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Rahbarning unga bo'ysunuvchilarga nisbatan ta'sir ko'rsatishi va ko'zlangan maqsadga erishishga ularni undashida o'zaro munosabatlar quyidagilarga asosan aniqlanadi:

- qarorlar qabul qilish jarayonida bo'ysunuvchilarning ishtirok etish darajasi;
- bo'ysunuvchilarning ma'lumotlar va axborotlar bilan ta'minlanishi;
- rahbar tomonidan qo'llanilayotgan ish uslublari, ya'ni u yoki bu masalani hal qilishda uning o'ziga xos yondashishi.

Liderlik – bu shaxsning shaxsiy etukligining (shaxsiy etuklik – shaxsiy kamolot, individual yuksak ma'naviyat, shaxsning ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy barkamolligini anglatuvchi tushuncha 1) odamlar xulq-atvoriga ta'siriga asoslangan guruh, jamoadagi tabiiy ijtimoiy-psixologik jarayonidir.

Liderlik asosan uch xususiyatga ega⁴²:

- Emotsional lider.
- Ishonchli lider.
- Informativ lider.

Emotsional lider guruhning yuragi bo'lib, har bir inson unga hamdardlik izlab murojaat qilishi, “uning ko'kragiga bosh qo'yib yig'lashi mumkin”.

Ishonchli lider guruhning qo'llari bo'lib, u ishni tashkillashtiradi, ish yuzasidan muhim aloqalarni yuzaga keltiradi, ishning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Informativ lider (guruhning miyasi) ga hamma savollar bilan murojaat qilishi mumkin, chunki u hamma narsani biladi, tushunadi, tushuntiradi.

Rahbar amalga oshiradigan boshqaruv funksiyalari quyidagilar hisoblanadi: rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat.

Rejalashtirish – boshqaruv faoliyatining boshlanishi va asosidir. Tayyor rejalar nima, qachon va kim tomonidan bajarilishini ko'rsatib turadi.

⁴¹ Z.E.Azimova Maktabgacha ta'limni boshqarishning ilmiy asoslari – 2022, 10-bet

⁴² Shirinov M.K. Ta'lim muassasalarini boshqarishda rahbarlik faoliyati (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida) // Zamonaviy ta'lim, 2015, 1. – B. 14.

Rejalashtirish o'tmishdagi rivojlanish, hozirgi sharoitlarni tahlil qilish va kelajakka real vazifalarni qo'yishni nazarda tutadi.

Tashkillashtirish – tizimni yuzaga keltirishdir, bunda quyidagi uch komponent: intiluvchi guruhlar, iqtisodiy munosabatlar va texnik vositalar mantiqiy ravishda birbiriga bog'langan bo'ladi.

Nazorat – ish faoliyatini tartibga keltirish, tasniflash, hodisalarni oldindan belgilangan shakli bo'yicha baholashdir. Nazorat yordamida ijtimoiy-psixologik obyektlar, ular uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning yorqin darajasiga qarab (ekspert baholash) dastlabki tasniflash amalga oshiriladi.

Rahbarlikda ba'zida o'z e'tiborini faqat vazifalarga, ishga qaratgan yoki faqat xodimlarga qaratgan rahbarni ko'plab ko'rish mumkin. Albatta, bunday ko'rinishdagi rahbarlarning ikkalasi ham jiddiy kamchiliklarga ega, deb baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 37-son, 984-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son Qarori / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.10.2018 y., 07/18/3955/1978-son, 13.12.2018 y., 06/18/5597/2300-son, 05.07.2019 y., 06/19/5759/3385-son; 28.09.2020 y., 06/20/6075/1330-son, 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-son.

3. Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. –159 b.

4. Muxitdinov X.A., Sobirov A.A. Boshqaruv nazariyasi // Darslik. – T. 2012. – 240 b.

5. Назарова О.Л. Управление качеством образовательного процесса профессионально-педагогического колледжа. Учебно-метод. пособие. / Назарова О.Л. –Магнитогорск: МаГУ, 2003. –С.81.

6. Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. –159 b.

7. Muxitdinov X.A., Sobirov A.A. Boshqaruv nazariyasi // Darslik. – T. 2012. – 240 b.

8. Назарова О.Л. Управление качеством образовательного процесса профессионально-педагогического колледжа. Учебно-метод. пособие. / Назарова О.Л. –Магнитогорск: МаГУ, 2003. –С.81.